

## **MAKTAB O'QUVCHILARINI MATEMATIK SAVODXONLIGINI YANADA OSHIRISH YO'LLARI**

**Safarova Muhabbat Narbayevna**

**Sardoba tumani 12-maktab matematika fani o'qituvchisi,**

**[maktabim12\\*sar@gmail.com](mailto:maktabim12*sar@gmail.com)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7567434>**

Annotatsiya: Konsepsiyani qayta ko'rib chiqish zamonaviy o'qish savodxonligi nazariyasiga asoslanadi, hamda zamonaviy hayotda o'qish sharoitini hisobga olib, o'quvchilar keng mazmundagi ma'lumotlarni qabul qilishadi va ulardan keng foydalanishadi.

Kalit so'zlar: nazariya, konsepsiya, TALIS, ta'lim, tarbiya, individual, metod.

Abstract: The revision of the concept is based on the theory of modern reading literacy, and considering the conditions of reading in modern life, students receive and use a wide range of information.

Key words: theory, concept, TALIS, education, upbringing, individual, method.

Biz shiddat bilan o'zgarayotgan, son jihatidan va turli xil yozma materiallar borgan sari ko'payib borayotgani hamda ko'plab insonlar ushbu materiallarni mutlaqo yangi va murakkab usullar bilan qo'llayotgan dunyoda yashayapmiz. Hozirda jamoatchilik tomonidan o'qish savodxonligining rivojlanayotganligi jamiyat va madaniyat sohasidagi o'zgarishlar bilan hamohang ekanligi anglab tan olinmoqda. O'qish malakasi, individual rivojlanish, ta'lim faoliyatidagi yutuqlar, jamoatchilikdagi faollik uchun zarur. Chunki ushbu faoliyatlar 20 yil avval zamonaviy qarashlardan farq qilar edi. Albatta, bu 20 yildan so'ng yanada ko'proq o'zgarishi mumkin.

2018-yilda 46 mamlakat TALIS tadqiqoti ishtirokchisiga aylandi. Shuni ta'kidlash lozimki, TALIS yagona so'rovlar hamjamiyati bo'lib, ta'lim dargohidagi o'quv muhiti va o'qituvchilarning ish joylaridagi shart-sharoitlarni o'rganishga e'tibor qaratadi. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarni boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

Xalqaro ekspertlar ta'kidlashicha, boshlang'ich maktabda maktab o'quvchilarining keyingi tarbiyasida muvaffaqiyat qozonish uchun poydevor qo'yilgan. Shunday ekan bizning oldimizdagi bosh maqsadimiz

o'quvchilarimizning xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishimiz kerakligini har bir pedagog tushunib anglab yetishi lozimligini ko'rsatadi.

Maktab o'quvchilarida o'z ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va ob'yektiv tarzda baholay olishga oid mas'uliyat ham shallangan bo'lishi kerak. O'quvchining o'zi berilgan o'quv materialni modellashtira olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Bu jarayonda o'quvchining o'zi mustaqil tarzda har qanday sxema model bo'la olmasligini tushunib yetishi kerak, bir so'z bilan aytganda unda faraz qila olish ko'nikmasi hosil bo'lishi kerak. Kichik maktab yoshida o'qishga, o'rganishga yo'naltirilgan faoliyat yetakchi mavqega ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning rivojlanishida o'yin, sport, ijodiy faoliyat ham muhim o'rin tutadi. Lekin o'qish o'rganish, yani ta'limiy faoliyat, boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsadga-bolani mujassam rivojlantirish maqsadiga yo'naltirishi lozim. Jumladan, nutq va savodxonlikni rivojlantirishga, jismoniy taraqqiyotni taminlashga va boshqalar.

Ayni shu rivojlantiruvchi ta'lim jarayoni o'quvchining ongini, tafakkurini rivojlantirishga hamda uning shaxsiy taraqqiyotiga keng imkoniyat yaratadi. Matematikani o'qitish sistemasida masalalar yechish samarali mashq qilish turlaridan biridir. Masalalar yechish avvalo bolalarda mukammal matematik tushunchalarni shakllantirishi, ularning o'quv dasturida belgilab berilgan nazariy bilimlarni o'zlashtirishlarida muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar masalalarni yechayotganda turli xil matematik tushunchalar – son, arifmetik amal, qo'shiluvchi, yig'indi, qoldiq kabilar bilan tanishadilar, shuningdek atrof muhitdagi, fandagi, texnikadagi turli xil bog'liqli muammolar bilan tanishadilar va uni yechadilar. Masalan: ustaxonada ko'ylaklar va shuncha kostyum tikildi. Har bir ko'ylakka 3 metr, har bir kostyumga 4 metr material ketadi, agar ko'ylaklar uchun 24 metr material ketgan bo'lsa, kostyumlar uchun qancha material ketgan. Masala tahlilini quyidagicha izohlaymiz.

Masala tahlili masala savolidagi berilganlarga qarab boradi:

1. Masalada nimani bilish talab qilinadi? (kostyumga ketgan materialni)
2. Buni birdaniga bilib bo'ladimi? (yo'q)
3. Nega? (nechta kostyum tikilganini bilmaymiz)
4. Nchta kostyum tikilganini bilib bo'ladimi? (bo'ladi)
5. Qanday qilib? (nechta ko'ylak tikilgan bo'lsa shuncha kostyum tikilgan) Nchta ko'ylak tikilgan? (24 m materialning har 3 m dan bitta ko'ylak tikilgan bo'lsa,  $24:3=8$  ta ko'ylak tikilgan).
6. Kostyum ham 8 ta bo'lsa, har bir kostyumga 4 m dan material ketsa jami nechta m material ketgan. ( $8 \cdot 4 = 32$  m)
7. Masala savoliga javob berdikmi? (ha)

Bundan keyin o'quvchilar masalalar yechishda sonli berilganlarni tasvirlovchi rasmlardan foydalanadilar. Masala yechish malakalari rivojlangan sari o'quvchilar tushunadigan predmet va hodisalar orasidagi bog'lanishga doir masalalarni yecha boshlaydilar. Noma'lum qo'shiluvchi qatnashgan masalalarni yechishga muhokama qilishdan foydalanish kerak. Bunday masalalarni qiynalmasdan yechishi uchun o'quvchilarning o'zlariga kuzatish asosida masalalarni mustaqil tuzdirish kerak. Agar bolalarning mustaqil ishlarini turli masalalarni yechish bo'yicha tashkil qilinsa, o'tilayotgan dars yanada samaraliroq bo'ladi. Buni darslikdan bir qancha o'xshash masalalarni tanlab olish orqali amalga oshirish mumkin. O'zbekistonning ilg'or o'qituvchilari ish tajribasida ushbu ish usuli qo'llanilmoqda: o'qituvchilarning o'zlari masalalarni tuzadilar va tanlaydilar hamda ularni alohida ko'rgazmalarga yozadilar, darsda bolalarga turli masalalarni beradilar, bu vaqtda bir partada o'tirgan qo'shni o'quvchilar boshqa-boshqa masalalarni yechishadi. Bu o'quvchilarga individual yondoshishni ta'minlaydi va to'la mustaqillik uchun qulay sharoit va har bir o'quvchining o'z qobiliyati bo'yicha ishlashiga qulay imkon beradi. O'qituvchi bolalarning masalani to'g'ri yechishlarini kuzatib turadi, yo'l qo'ygan xatolarini tuzatishni aytadi, navbatdagi ish uchun har bir o'quvchiga, ularni yo'l qo'ygan xatolarini tuzatishga yordam beradigan topshiriqlarni tanlaydi. Bunday ishlar masala yechish malakasini oshiradi va mustahkamlaydi.

Matematika o'qitishni turmush bilan bog'lash, bolalarda umumlashtirish malakasini rivojlantirish, bir qator matematik tushunchalarni chuqur o'zlashtirish, miqdorlar orasidagi funksional aloqa va bog'lanishlarni yaxshi tushunish uchun o'quvchilarni o'zlari masala tuzishlari katta ahamiyatga ega.

### References:

1. Xalqaro baholash dasturi haqidagi jurnallar
2. Jumayev M. va b.q. "Matematika o'qitish metodikasi" T- 2005 y 312 b
3. Mardanova F.I. "Matematikadan test topshiriqlari" 6-sinf T-O'qituvchi 2007-y